



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2026- yil 31-iyul

QAROR 12-son

Toshkent sh.

“Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi “Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais



B. Hamrayev